

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSINI O'RGATISH METODIKASI VA MATEMATIKA FANINI O'QITISH METODLARIDA YANGI INNOVATSION G'OYALAR

Ochildiyeva Mushtariy Maxamadjon qizi

Qo'qon Universiteti Iqtisodiyot va ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6624589>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning samarali jihatlari, ahamiyati, shuningdek sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi bir nechta innovatsion metodlar va pedagogik texnologiyalar haqida batafsil bayon etilgan. Shuningdek, mazkur maqolada matematika fanini o'qitish metodlarida yangi innovatsion g'oyalar, so'nggi yillarda kompyuterlar va axborot texnologiyalari hayotimizga dadil kirib kelayotganligi, matematika darslarida o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini shakllantirish maqsadida kompyuterdan foydalanishlari va kompyuter savodxonligi, matematika fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar haqida batafsil bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** kompyuter, texnologiya, matematika, innovatsion ta'lim, elektron ishlanma, innovatsion g'oya, malakali o'qituvchi, innovatsion metod, motivatsiya, interfaol usullar, pedagogik texnologiyalar.*

НОВЫЕ НОВАТОРСКИЕ ИДЕИ В МЕТОДИКЕ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ И МЕТОДИКЕ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ

***Аннотация.** В данной статье подробно описывается эффективность и важность использования инновационных методов в начальной школе, а также несколько инновационных методов и педагогических технологий, служащих для обеспечения качества. В статье также обсуждаются новые новаторские идеи в методах обучения математике, смелое внедрение компьютеров и информационных технологий в последние годы, использование компьютеров в математике для развития навыков мышления учащихся, компьютерной грамотности, инновационные подходы в обучении математике. деталь.*

***Ключевые слова:** компьютер, технология, математика, инновационное образование, электронное развитие, инновационная идея, квалифицированный педагог, инновационный метод, мотивация, интерактивные методы, педагогические технологии.*

NEW INNOVATIVE IDEAS IN THE METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN PRIMARY SCHOOL AND METHODS OF TEACHING MATHEMATICS

***Abstract.** This article describes in detail the effectiveness and importance of the use of innovative methods in primary school, as well as several innovative methods and pedagogical technologies that serve to ensure quality. The article also discusses new innovative ideas in mathematics teaching methods, the bold introduction of computers and information technology in recent years, the use of computers in mathematics to develop students' thinking skills, and computer literacy, innovative teaching of mathematics. approaches are described in detail.*

Keywords: *computer, technology, mathematics, innovative education, electronic development, innovative idea, qualified teacher, innovative method, motivation, interactive methods, pedagogical technologies.*

KIRISH

Ma'lumki har bir malakali o'qituvchining dars jarayonida foydalanadigan innovatsion metodlari bor bo'ladi. Pedagog bu usullardan o'zining faoliyatining eng asosiy va markaziy masalasi o'quv jarayonida samarali va sifatli tashkil etishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bu muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgan sinf hisoblanadi. Bu paytda yosh bolalarning aqliy holati mukammal rivojlanib borishiga katta e'tibor qaratish zarur. Sababi ular endigina maktab ostonasiga qadam qo'yib kelayotgan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirish, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib berishlari zarur bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Innovatsion metodlar o'qish motivatsiyasini shakllantirishga katta yordam beradigan texnologiyadir. Biz hozir boshlang'ich sinflarda qo'llanadigan innovatsion usullar bilan tanishib chiqamiz. 1. «Rasmi rebus» usuli. Mazkur metod asosan darsning "Mustahkamlash" qismida qo'lansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu metod yordamida o'quvchilar shoir ijodiga doir asarlari rasmlarga qarab aniqlashi kerak bo'ladi. Masalan, rebusda baliqcha, hovuz, tilla tanga rasmlari aks etgan bo'lsa, demak bu yerda shoirning «Tilla baliqcha» she'ri tasvirlangan bo'ladi. Bu bolalarda aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'l kelishi mumkin. 2. «Tezkor savol-javob» metodi. Ushbu metodni biz darsning "O'tilgan mavzuni takrorlash va uyga vazifa so'rash" qismida qo'llashni lozim ko'rdik. O'quvchilarga o'tgan mavzun yuzasidan savollar beriladi. O'quvchilar esa savollarga tezkorlik bilan javob berishlari kerak bo'ladi. Bunda o'quvchilar javoblarini yozma tarzda berganlari maqsadga muvofiq, chunki bunda ularning o'z sheriklarining javoblarini o'zlashtirishi inobatga olinadi. 3. «Qiziqarli krossvord» metodi. Ushbu metod orqali o'quvchilar darsning "Yangi mavzu bayoni" qismida olgan bilimlarini mustahkamlashda qo'l kelishi mumkin. Ya'ni, bunda sinfdagi o'quvchilar guruhlariga bo'lingan holda ishlasalar samaraliroq bo'ladi. 4. "Loyiha" metodi. Mana shu metod biz darsning «Yakuniy qismi»da qo'llansa yaxshi bo'lardi. Chunki, darslikdagi o'tilgan o'qish uchun berilgan ma'lumotlar nisbatan kam hajmda hamda dars vaqtining chegaralanganligi bois, o'quvchilar keng va to'liq ma'lumotlar olishi qiyin bo'lishi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda ushbu usul yaxshi samara berishi mumkin. "Loyiha" metodi o'quvchilarni mustaqil o'rganishga va izlanishiga turtki bera oladigan metoddir. O'qituvchi dars yakunida o'quvchilarga qiziq bo'lgan mavzuni o'rta tashlaydi va sardori tayinlanadi. Keyingi darsgacha ularga berilgan topshiriqlar bo'yicha ma'lumotlar topish, so'ngra taqdimot loyihasini tayyorlash vazifasi yuklatiladi.

NATIJARLAR

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy metodlari o'tkazish usullariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan intilish, xohish va istaklarini uyg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivatsiyasini takomillashtirish, muhim ahamiyatga kasb etadi. Bundan

tashqari boshlang'ich sinflarda "Sinkveyn", "Muzyorar", "Keys stady", "Insert", "Venn diagrammasi", "BBB", "Reklama metodi" kabi metodlar ham o'quv jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda. Metodlarning ahamiyati shundaki, bu bir nechta bosqichni qamrab olganligi hamda o'quvchilarda mustaqil tadqiqotchilik qobiliyatlarini takomillashtirishga qo'l keladi. Yuqoridagi, o'zida innovatsion pedagogik ruhni singdirgan bunday dars usullari o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini oshiribgina qolmasdan, ulardan mustaqil tadqiqotchilik hamda intiluvchanlik xislatlarining chuqur tomir otishida yordam berishiga ishonchimiz komil.

Maktablarda zamonaviy ta'lim asosida o'tiladigan bunday dars metodlari o'quvchilarni har taraflama o'z qobiliyatlarini namoyon qilishda, yangi davr kishisini tarbiyalashda, kamolga keltirishda yordam berishi shubhasiz. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakkam ehtiros bo'ladi. Pedagogik yangilik - pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir. Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Kompyuterlar bugungi kunda axborotni olish va qayta ishlashning muhim vositasi bo'lib, uning tezligi tasavvurni hayratga soladi. Shunday ekan, bu vositalarni ta'lim jarayoniga joriy etishni hozirgi davrda tabiiy hol deb hisoblash mumkin.

MUHOKAMA

Didaktik darslikda foydalaniladigan kompyuter jarayonlarini tizimlashtirishga harakat qilaylik. Multimedia texnologiyalari tufayli talabalarda qiziqish va qiziqish uyg'otadi. U fikrlash faoliyatini faollashtiradi va o'tilgan materialni samarali o'zlashtirishga imkon beradi. Amalda ko'rsatish qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va namoyish qilish imkonini beradi. Materialni o'zlashtirish tezligi bilan bir qatorda uni tushunish, tushunish o'qitishni yakka tartibda olib borish imkonini beradi. Matematika darslarida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida kompyuterdan foydalanishga e'tibor qaratamiz. O'qituvchi dars davomida o'quvchilarga ma'lum hajmdagi darslarni beribgina qolmay, balki ularda turli xil vositalar, jumladan, kompyuterdan foydalangan holda mustaqil ravishda boshqa ma'lumotlarni izlash istagini ham shakllantirishi kerak. Adabiyotlar tahlili va metodologiya: O'quvchilarning mustaqil bilim olish qobiliyati qanchalik yaxshi tashkil etilgan bo'lsa, dars shunchalik samarali va sifatli o'tadi. Kompyuter o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini oshiradi, o'qituvchi esa o'tilgan materialni o'zlashtirish jarayonini turli yo'llar bilan boshqara oladi. "Matematikani o'qitishda innovatsion yondashuvlar" matematika o'qituvchilarining malakasini oshirish kursining o'quv dasturi asosida matematika o'qituvchilarini o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarning mazmun va mohiyatini ochib beradi. Keling, fanlarni o'rganishingiz kerak bo'lgan ba'zi mobil ilovalardan misollarni ko'rib chiqaylik. Asosiy hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun "Matematik zukkolik" ilovasi. Ilova tezkor hisob-kitoblar

uchun mavjud algoritmlarni aks ettiradi. Har bir talaba ularni o'rganishi va keyin nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlarda mustahkamlashi, shu bilan og'zaki arifmetikaning amaliy tajribasini boyitishi mumkin. Matematika o'qitishda innovatsion yondashuvlar moduli bo'yicha o'quvslubiy majmua o'quvchiga yangi g'oyalar, me'yorlar, qoidalar, boshqalar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yorlar, qoidalarni tabiiy qabul qilish bilan bog'liq sifatlar, ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beruvchi tarbiyani yaratishga o'rgatadi. innovatsion ta'lim deb ataladi. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb ataladi. Ta'lim innovatsiyasi – ta'lim sohasidagi yoki o'quv jarayonidagi muammoni yangicha yondashuv asosida hal etishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan, avvalgidan ko'ra samaraliroq natijani kafolatlay oladigan shakl, usul va texnologiya. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan ta'lim innovatsiyalarini jahon ta'lim standartlari darajasida joriy etish va ta'lim innovatsiyalarini joriy etish orqali har tomonlama yetuk ijodiy, boy ma'naviyatli, kasbiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta'minlash orqali ta'lim samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarining pedagogik xodimlari, Xususan, har bir fan o'qituvchisi mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalangan barkamol shaxsni kamol toptirish kabi vazifalarni hal etishda o'zining pedagogik faoliyatini tubdan o'zgartirishi zarur. Mamlakatimiz bo'ylab umumta'lim maktablariga katta e'tibor qaratilib, maktablarimizni jahon andozalari darajasida jihozlash ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim muassasalari, jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida yangi vazifalar, ya'ni fanni o'zlashtirish sifatini oshirish vazifalari turibdi. Shu munosabat bilan matematika o'qitishda turli metodlardan foydalaniladiki, ularning asosiy maqsadi matematika o'qitishni joriy etish va o'zlashtirishdan iborat. Muhokama: Axborot texnologiyalarining multimedia vositalari o'quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga ega: differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil etish; o'qish jarayonini baholash, fikr-mulohazalar; o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tuzatish; O'rganilayotgan fanni va o'rganishning dinamik jarayonini ko'rsatish; fan ma'ruzalarida animatsiya, grafika, animatsiya, tovush kabi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish; o'quvchilarning fanni o'zlashtirishlari uchun strategik ko'nikmalarni shakllantirish va hokazo. Shuningdek, multimediya vositalarining amaliy tomoni ularni o'quv jarayonida qo'llash va ta'lim tizimida bo'lajak o'quv jarayoni uchun aniq otlar va virtual stendlar bazasini yaratish kabi muhim vazifani amalga oshirishga zamin yaratadi. Fanlarning elektron versiyalarini yaratish, o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish va zamonaviy dasturiy ta'minot yaratish masalasi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf matematika darslari uchun elektron ishlanmalar yaratish metodikasi, darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish va shu asosda dars o'tish metodikasi ishlab chiqildi. Yaratilgan elektron ishlanmada sarlavha, mazmun, o'quv materiallari hamda bilimlarni nazorat qilish uchun test va topshiriqlarni tavsiflovchi sahifalar mavjud emas. Elektron ishlanmaning asosiy qismi matn, grafik, animatsiya va test dasturlarini o'z ichiga oldi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf matematika fanini yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qitishda kompyuter va multimedia vositalaridan foydalanish darsning noan'anaviy turlaridan biridir.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, dars vaqtida o'quvchilarning ta'lim faoliyati innovatsion metodlar yordamida amalga oshirilsa, uning axborotni qabul qilishi samarali, oson

kechadi va ta'lim samaradorligi yanada oshirishga yordam beradi. Bolaning aqli endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda pedagogning mahorati, uning o'qituvchilik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona talqin qila olishi, ta'limning yangi-yangi usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhim hisoblanadi. Axborot texnologiyalari vositalaridan biri matematika fanini multimedia muhitida turli animatsiyalar, dasturlar orqali o'qitishni tashkil etishdir. O'qitish jarayonini axborot texnologiyalarining multimedia vositalari asosida talablar asosida tashkil etish o'qituvchi mehnatini yengillashtirish, o'quv jarayonini boshqarish, samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda ta'lim muassasasi rahbariyatiga talaba, guruh, mutaxassisliklar bo'yicha test natijalarini ko'rib borish va ulaming o'zlashtirish natijalariga baho berish, o'qituvchilarning ma'ruza matnlari va boshqa mustaqil ishlariga mo'ljallangan materiallarining tayyorlash sifatiga baho berish, multimedia vositalari asosida laboratoriya ishlarini bajarish uchun kompyuterda modellashtirilgan virtual standlar joriy etish, kursni o'zlashtirish bo'yicha uslubiy materiallarni tayyorlash uchun takliflar ishlab chiqish kabilarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham o'quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, turli innovatsion metodlardan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. Metodik qo'llanma, TDPU, 2007.
2. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov, "Ta'limda innovatsiya" T.; Istedod- 2010. 3. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogika. TDPU, 2007.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2017, T; Ma'naviyat.
5. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning tanqidiy asoslari. –T.: Fan, 2006. 6. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – T., 2001.
7. Azizxo'jayev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T., 2002. 8.Divanova M.S., Alimova S.Q., Alimov O.N. Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, 46 bet.
9. Jumayev M.E., Z.G., Tadjiyeva. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi "Fan va texnologiya", 2005. 312 bet.
10. Alixonov S. "Matematika o'qitish metodikasi" Qayta ishlangan II nashri. T., «O'qituvchi» 1997 va boshqalar elementar matematikadan masalalar.
11. Alixonov S. «Matematika o'qitish metodikasi». T., «O'qituvchi» 1998. 12. Azlarov T., Monsurov X. Matematik analiz. -T.: «O'qituvchi». 2001.